

MAHALLIY BYUDJET MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ZARURIYATI

Xidirova Dilobar Zayniddinovna ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.04.2025

Revised: 26.04.2025

Accepted: 27.04.2025

Ushbu maqolada mahalliy byudjet moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KALIT SO'ZLAR:

davlat byudjeti,
mahalliy byudjet,
byudjet nazorati, ochiq
byudjet, byudjet
daromadlari, byudjet
xarajatlari, byudjet-
soliq siyosati.

KIRISH. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida juda ko'p xo'jalik subektlari o'z faoliyatini tijorat asosida tashkil etadilar. Ularning moddiy harajatlari va mexnat jamoalariga ish xaqi to'lash hamda ularni ijtimoiy himoya qilish harajatlarini qoplashning yagona manbai foyda hisoblanadi. Bunday omillar ta'sirida davlat vakolatli organlarining asosiy manfaati, foyda ko'rib, faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subektlarini rivojlantirishga yordam berish hisoblanadi. Ushbu xo'jalik subektlarining faoliyati natijasida milliy daromad yaratiladi. Ular ixtiyorida juda katta pul mablag'lari jamg'armalari aylanishi amalga oshiriladi. Natijada, markazlashgan moliya bo'g'inlari kerakli pul mablag'lari (soliqlar, turli yig'imlar shaklida) bilan ta'minlanadi.

Byudjet tizimining asosiy bo'g'ini - markazlashgan byudjet hisoblanadi. Bunda moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlash

hamda qayta taqsimlash natijasida, markazlashgan pul mablag'lari resurslari shakllantiriladi. Davlat ixtiyorida bunday markazlashgan pul mablag'lari resurslarining jamlanishi, eng avvalo, mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish faoliyati bilan bog'liqdir. Markazlashgan pul mablag'lari resurslarining shakllari davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar hamda davlat krediti hisoblanadi.

Har bir alohida olingan mamlakatlarda davlat byudjeti tuzilmasi va byudjet tizimi mavjud. Byudjet tuzilmasi mazkur davlatning siyosiy- ma'muriy tuzilmasiga asosan shakllantiriladi. Davlat byudjeti tuzilmasi o'z mohiyatiga ko'ra, davlat byudjetini tuzish tamoyillarini, uni tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, va ijro etish tartibini, byudjet daromadlarinshakllantirish, uning harajatlarini amalga oshirish tamoyillarini tashkil etishni ifodalaydi.

Iqtisodchi olimlar o'rtasida davlat byudjeti tuzilmalarining shakllari to'g'risida yagona fikr yo'q. Biz ilmiy tadqiqotimizda ushbu qarashlarni tahlil etishga harakat qilamiz. Iqtisod fanlar nomzodi, dotsent S.S.Gorbushinaning fikricha, xalqaro amaliyotda ikki shakldagi davlat byudjeti tuzilmalari mavjud:

- unitar davlatlar byudjet tuzilmasi;
- federativ davlatlar byudjet tuzilmasi [1].

Xuddi shunday fikrni iqtisod fanlari doktori, professor B.V.Markina ham qo'llab quvvatlaydi. Uning fikricha, davlat byudjetituzilmasi quyidagilardan iborat:

- unitar davlatlarda ikki bo'g'inli, ya'ni markaziy va mahalliy byudjetlardan iborat byudjet tuzilmasi;
- federativ davlatlarda uch bo'g'inli, ya'ni federal, xududiy (respublikalar, shtatlar, viloyatlar) va mahalliy byudjetlardan iborat byudjet tuzilmasi mavjudligini ko'rsatib o'tgan [2].

Davlat byudjeti, uning mohiyati, vazifalari muammolari to'g'risida izlanishlar olib borib iqtisod fanlari doktori, professor B.G.Boldirev, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent N.M.Yarsevalar ham xalqaro amaliyotda ikki shakldagi davlat byudjet tizimi mavjudligini e'tirof etadilar. Davlat byudjeti bo'yicha yetakchi mutaxassis, iqtisod fanlari doktori, akademik G.B.Polyak ushbu qarashlarni chuqur tahlil etgan xolda xalqaro amaliyotda uch shakldagi davlat byudjeti tuzilmasi mavjudligini e'tirof etadi.

- unitar davlatlardagi ikki bo'g'inli, o'z ichiga davlat va mahalliy byudjetlardan iborat byudjet tuzilmasini olgan;

- federativ davlatlardagi uch bo'g'inli, o'z ichiga federal byudjet, federatsiya a'zolari

byudjeti va mahalliy byudjetlardan iborat byudjet tuzilmasini olgan;

-konfederativ davlatlardagi konfederatsiyaga kiruvchi davlatlar byudjeti va ularning badallari hisobiga shakllanadigan konfederativ byudjetdan iborat byudjet tuzilmasini olgan [3].

Dunyo mamlakatlari ichida o'zining noyob davlat tuzilmasiga ega bo'lgan Shveysariya konfederatsiyasi va Birlashgan Arab Amirliklari mavjudligi hamda ularda konfederativ byudjet tuzilmasi amal qilinishini hamda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning badallari hisobiga shakllanadigan Yevropa Ittifoqi byudjeti mavjudligini inobatga olgan xolda, muallifxalqaro amaliyotda uch shakldagi davlat byudjeti tuzilmasi mavjudliginie'tirof etadi.


Biz ilmiy izlanishimizda yuqorida ta'kidlab o'tgan davlat byudjeti tuzilmalarini tahlil etishga harakat qilamiz.

Unitar davlatlarda (Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, O'zbekiston, Qirg'iziston, va boshqalar) davlat byudjeti tuzilmasi davlat byudjeti va uning xududiy - ma'muriy bo'linmalarining mahalliy byudjetlaridan iborat bo'ladi. Ushbu tuzilmaning asosiy tamoyili shundaniboratki, unda yagona soliq tizimi va yagona harajatlar tizimi amal qiladi. Qonunchilikka asosan, davlat byudjetiga eng ko'p tushum keltiradigan umumdavlat soliqlari biriktirib qo'yiladi. Mahalliy byudjetlarga esa, ikkinchi darajali soliqlar va yig'img'lar biriktirib qo'yiladi. Agarda mahalliy byudjetlarning harajatlari miqdori daromadlar miqdoridan oshib ketsa, o'rtadagi farq davlat byudjetidan dotatsiya, subsidiya va subvensiya shaklidagi moliyaviy mablag'lar bilan qoplanadi. Bundan tashqarii, mahalliy byudjetlar harajatlar tarkibida asosiy ulushni ijtimoiy madaniy tadbirlarni moliyalashtirish harajatlari egallaydi.

Federativ davlatlardagi byudjet tuzilmasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu davlat byudjeti tuzilmasi o'z tarkibiga federal byudjeti, federatsiya a'zolari byudjeti va mahalliy byudjetlarni oladi. Turli mamlakatlarda davlat byudjeti tuzilmasi turlicha. Masalan, AQShda byudjet tuzilmasi federal byudjetdan, 50 ta shtatlar byudjetidan va 82 ming mahalliy (okruglar, munitsipalitetlar, shaharlar va taunshiplar) byudjetlardan iborat.

GFRda byudjet tuzilmasi federal byudjetdan, 16 ta yerlar (zemel) byudjeti va mahalliy byudjetlardan iborat. Kanadada byudjet tuzilmasi federal byudjetdan 10 ta provinsiyalar byudjetlaridan va mahalliy (viloyatlar, grafliklar) byudjetlardan iborat [4]. Ushbu byudjet tiziminingo'ziga xos xususiyatlari bor.

Biz mazkur dissertatsiya ishimizda Rossiya Federatsiyasi byudjet tuzilmasini quyidagi rasmda keltiramiz.



1-rasm. Rossiya Federatsiyasining byudjet tizimi

Federativ davlat hisoblangan Rossiya Federatsiyasining davlat byudjeti tuzilmasini tahlil qilamiz. Rossiyada davlat byudjeti tuzilmasi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi va Rossiya Federatsiyasi Byudjet Kodeksiga asosan uch bo'g'indan iborat:

1. Federal byudjet va davlat byudjetdan tashqari fondlari byudjetlari;
2. Rossiya Federatsiyasi subektlari (respublikalar, viloyatlar, muxtor okruglar, Moskva va Sankt-Peterburg shaxarlari) byudjetlari va xududiy davlat byudjetdan tashqari fondlar byudjetlari;
3. Mahalliy byudjetlar.

Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi tarkibida federal byudjet, 21 respublika byudjetlari, 55 ta o'lkalar va viloyatlar byudjetlari, 1 ta avtonom viloyati byudjeti, 10 okruglar byudjeti va 29 mingta mahalliy (tumanlar, shaharlar, posyolkalar va qishloqlar) byudjetlari mavjud. Ushbu byudjetlardan tashqari Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimida quyidagi davlat byudjetidan tashqari fondlari mavjud:

1. Rossiya Federatsiyasi nafaqa fondi;
2. Rossiya Federatsiyasi yo'l fondi;
3. Rossiya Federatsiyasi ijtimoiy sug'urta fondi;
4. Rossiya Federatsiyasi davlat aholisi ish bilan bandlik fondi.
5. Rossiya Federatsiyasining byudjetdan tashqari federal majburiy meditsina sug'urta fondi;
6. Rossiya Federatsiyasi subektlarining byudjetdan tashqari majburiy tibbiy sug'urta fondi.

Konfederativ davlatlar va unga a'zo hisoblangan davlatlarda o'zlarining mustaqil soliq tizimi va byudjetlari mavjud. Markaziy hukumatni saqlash va mudofaa harajatlari uchun har bir a'zo davlat konfederativ byudjetni shakllantirish maqsadida badallarni ajratadi. Masalan, Shveysariya Konfederatsiyasida mudofaa harajatlari yo'qligi tufayli, unga a'zo davlatlar faqatgina markaziy davlatni saqlash uchun konfederativ byudjetga badallarni to'laydi xolos.

Unitar davlatlardagi byudjet tuzilmasi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi unitar davlat bo'lgani sababli biz ushbu tuzilmani tahlil etamiz. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan № 158 – II sonli «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonunga asosan faoliyat ko'rsatadi. Ushbu qonunga asosan, "Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi" [5]. Har qanday byudjet tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning o'ziga xos tamoyillari mavjud bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti tuzilmasi tarkibiga respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, mahalliy byudjetlar va davlat maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalari kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetini hamda tumanlar va respublikaga (Qoraqalpog'iston) bo'ysunuvchi shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Viloyatning byudjeti viloyat byudjetini, viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini o'z ichiga oladi. Tumanlarga bo'linadigan shaharning byudjeti shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini o'z ichiga oladi. Tumanlarga bo'linadigan shaharlari bo'lgan tumanning byudjeti tuman byudjetini va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Biz O'zbekiston Respublikasining ma'muriy tuzilishiga asoslangan davlat byudjeti

tuzilmasini quyidagi rasmda keltiramiz.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tuzilmasi

Mamlakatimiz byudjet tizimining asosiy prinsiplaridan biri byudjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-xududiy tuzilishiga muvofiqligi hisoblanadi. Davlatning joylardagi vakolatli organlari o'z faoliyatini olib borish uchun o'z mahalliy byudjetiga egadirlar. Mahalliy byudjet- davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutilgan byudjetdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar respublikamiz qonunchiligiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimiyati vakillik organlari tomonidan qabul qilinishi uchun taqdim etiladi hamda ularning ijrosi to'g'risida tegishli hisobotni tuzadilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi xududlari iqtisodiy rivojlanish darajasi va eng muhimi, moliyaviy salohiyati bilan ajralib turadi. O'zbekistondagi ko'plab

iqтisodchi olimlarning fikricha, mamlakatimizda oltita xudud byudjet harajatlarini o'z byudjet daromadlari bilan ta'minlay oladi. Ushbu xududlarga quyidagilar kiradi: Toshkent shaxri, Buxoro, Navoiy, Toshkent, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlari. Respublikaning qolgan 8 ta xududlari: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari o'zlarining byudjet harajatlarini byudjet daromadlari bilan to'liq ta'minlash imkoniyatiga ega emaslar.

Ushbu xudud mahalliy byudjetlarining harajatlari va daromadlarini balanslashtirish uchun respublika byudjetidan transfertlar, dotatsiyalar va subvensiyalar ajratiladi. Mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan, mahalliy byudjetlarda byudjet taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat byudjetida barcha byudjet taqchilligi ko'zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Finansi. Uchebnik. pod.red. prof. V.V. Kovaleva. - M.: «Prospekt». - 2008. - 187 S.
2. Finansi. Uchebnik. pod.red.prof. A.G.Gryaznovoy. - M.: «Yurayt». - 2007. - 314 S.
3. Finansi. Uchebnik. pod.red. prof G.B.Polyaka- M.: «YUNITI – DANA». - 2007. - 58 S.
4. Kumri Nomozova. [Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object](#). Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. [Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region](#). International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. [Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vydayushixsya uchexnyx proshlogo](#). Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. [Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari](#). Straxovoy ryнок Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. [Mikrostraxovanie kak innovatsionnyy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa](#). Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. [Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari](#). Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. [Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish](#). Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

11. Qumri Nomozova. [O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari](#). Straxovoy ынок Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari. Journal of engineering, mechanics and modern architecture. 2023. – 109-115 b.
13. Qumri Nomozova. [O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni](#). Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023.
14. Qumri Nomozova. [Tadbirkorlikda tavakkalchilikni sug'urtalashda «big data» raqamli andarrayting tizimlarini qo'llash istiqbollari](#). Straxovoy ынок Uzbekistana. 2023. – 11-13 b.
15. Kumri Isoevna Nomozova. [Napravleniya razvitiya straxovыx uslug v sfere malogo biznesa i chastnogo predprinimatelstva v uzbekistane](#). World science: problems and innovations. 2020. - s. 167-169.
16. Nomozova Qumri Isoevna. “Tadbirkorlikda tavakkalchiliklarni sug'urtalash va uni O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari”. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. T.: TMI, 2021.
17. Finansi. Uchebnik. pod.red. prof G.B.Polyaka -M.: «YUNITI – DANA». - 2007. - 58 S.
18. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining kassa ijrosiga oid qonunchilik xujjatlari to'plami. – T.: «O'zbekiston» - 2008. - 8 B.